



**IQLIM O'ZGARISHI, GLOBAL ISISH VA ATROF-MUHIT
IFLOSLANISHI MUAMMOLARINING XALQARO HUQUQIY JIHATLARI.**

Keldibekova Dinara Rustamovna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "Xalqaro huquq" fakulteti,
2-bosqich talabasi*

e-pochta: keldibekovadinara316@gmail.com tel: +998(94) 867 15 11

Anotatsiya: *Mazkur maqolada iqlim o'zgarishi, global isish va atrof-muhit ifloslanishining xalqaro-huquqiy jihatlari yoritiladi. Ekologik muammolarning transchegaraviy xususiyati sababli ularni faqat xalqaro hamkorlik orqali hal etish mumkinligi ta'kidlanadi. Asosiy qismda havo ifloslanishi va iqlim o'zgarishini tartibga soluvchi xalqaro konvensiyalar hamda davlatlarning ekologik zarar uchun javobgarligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zarar yetkazmaslik, oldini olish, ehtiyotkorlik va hamkorlik kabi tamoyillarning ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Iqlim o'zgarishi, global isish, transchegaraviy ifloslanish, xalqaro ekologik huquq, Vena konvensiyasi, Monreal protokoli, oldini olish tamoyili, xabardor qilish majburiyati.*

Kirish.

So'nggi yillarda ekologiya bilan bog'liq muammolar keskin ravishda ortib borayotganligi sababli xalqaro miqyosda ekologik muammolarning oldini olish va yechim topish maqsadida e'tibor ham kuchayib bormoqda. Atrof-muhit bilan bog'liq muammolar – havo va dengiz ifloslanishi, iqlimning keskin ravishda o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi va yovvoyi tabiatning yo'qolib borishi – bir davlat doirasida qolmaydi va boshqa davlatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Shu sababli ushbu muammolarni faqat xalqaro hamkorlik orqali hal qilish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Asos sifatida shuni aytish mumkinki, ma'lum bir davlat hududida yuzaga keladigan ifloslanish ko'pincha boshqa davlatlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunga kislotali yomg'ir yaqqol misol bo'la oladi. Zavodlardan chiqarilgan kimyoviy moddalar atmosfera qatlamiga ko'tarilib, suv va quyosh nuri bilan reaksiyaga kirishadi va kislotalarni hosil qiladi. Ushbu kislotalar shamol orqali ko'chib, dastlabki ifloslanish manbasidan minglab kilometr uzoqlikda yomg'ir bilan yerga tushadi.²¹ Shu bilan birgalikda, bugungi kunda davlatlarning yakka o'zi ekologik muammolarni hal etolmasligi hech shak-shubhasizdir. Shu sababli, ifloslantiruvchi davlat bilan zarar ko'rgan davlat o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur hisoblanadi.

An'anaviy xalqaro huquqda davlat faqat o'zining noqonuniy harakati natijasida zarar yetkazgan taqdirdagina javobgar bo'lgan. Biroq ekologik muammolarni bunday yondashuv bilan hal etish biroz mushkul hisoblanadi, chunki zarar manbasini aniqlash har

²¹ International law. Malcolm N.Show. Ninth Edition





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

doim ham oson emas. Shu bois, xalqaro huquq asta-sekin davlatning yakka javobgarligidan ko'ra xalqaro hamkorlik tizimga o'tish yo'li bilan ekologik muammolarni hal qilmoqda. Ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, uning organlari va boshqa bir qancha tashkilotlar ekologik huquqni rivojlantirishda muhim o'rin egallab kelmoqda.

Asosiy qism.

Hozirgi kunda dunyo mislsiz ko'rinishda rivojlanib borsada, global ekologik muammolar ham ortda qolmasdan rivojlanib bormoqda. Aholining o'sishi, sanoatning kengayishi, texnologik yutuqlar va avtomobillarning ko'payishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Global muammolarning orasida eng xavflilari va ko'p miqdorda tabiatga va inson salomatligiga zarar yetkazayotgani esa havo ifloslanishi va iqlim o'zgarishi bo'lmoqda.

Havoning ifloslanishi – atmosferada odamlar va boshqa tirik mavjudotlar sog'lig'iga hamda iqlimga zarar yetkazuvchi moddalarning mavjudligi sababli kelib chiqqan ifloslanish hisoblanadi. Bu moddalarning kelib chiqish sababi esa sanoat korxonalari, transport vositalari, energetika va boshqa inson faoliyati natijasida zararli gazlar va kimyoviy moddalarning chiqarilishi natijasida yuzaga keladi. U inson salomatligiga, iqlimga va ekotizimga jiddiy zarar yetkazadi. Ammo havoning ifloslanishini va uning tabiatga jiddiy zarar yetkazishini oldini olishga qaratilgan xalqaro darajadagi bir necha konvensiyalar mavjud bo'lib, bular “Uzoq masofalarga tarqaluvchi havo ifloslanishi to'g'risida”gi konvensiya, Vena konvensiyasi²², Monreal protokoli asosiy konvensiyalar sirasiga kiradi. “Uzoq masofalarga tarqaluvchi havo ifloslanishi to'g'risida”gi konvensiya²³ BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) tomonidan 1979-yilda qabul qilingan muhim shartnoma bo'lib, u transchegaraviy havo ifloslanishini oldini olishga qaratilgan va global muammolarni hal qilishda global hamkorlikni ta'minlaydi.

Shu bilan birgalikda, global isish ya'ni iqlimning o'zgarishi ham yildan-yilga tobora yomonlashib bormoqda. Iqlim o'zgarishi – yer atmosferasining o'rtacha harorati ko'tarilishi bo'lib, bu bir qancha jiddiy muammolarga sabab bo'lmoqda, xususan muzliklarning erishi, qurg'oqchilik, oziq-ovqat va suv tanqisligi, kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu keltirilgan muammolar esa inson salomatligining Keskin ravishda yomonlashuvi va rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiyotning jiddiy zarar ko'rishiga sabab bo'lmoqda. BMT Bosh rezolutsiyasiga ko'ra global iqlim o'zgarishi “insoniyatning umumiy tashvishi” sifatida e'tirof etilgan.²⁴ Shu sababli, bu muammoga ham yagona qaysidir davlat javobgar bo'lmay, jamiyki davlatlar javobgar hisoblanib, xalqaro hamkorlik doirasida yechim talab qilinadi. Iqlim o'zgarishini oldini olishga ham xalqaro miqyosda konvensiyalar qabul qilingan va konferensiyalar bo'lib o'tgan, shulardan eng muhimlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij-2015

²² Vienna Convention for the Protection of the Ozone Layer (1985)

²³ Convention on Long-Range Transboundary Air Pollution (1979)

²⁴ UN General Assembly Resolution.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

konferensiyasi hisoblanadi. Ushbu konferensiyaning asosiy maqsadi haroratni 2 C dan oshirmaslik edi. Shu kabi davlatlar o'rtasida amalga oshiriladigan konferensiyalar va qabul qilinadigan konvensiyalar iqlim o'zgarishining oldini olish va umumiy ma'noda tabiatni asrab-avaylash uchun muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro huquq doirasida davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha asosiy majburiyatlariga sezilarli transchegaraviy ekologik zararlarning oldini olish, hamkorlik qilish majburiyati hamda ekologik siyosatni due diligence (lozim darajadagi ehtiyotkorlik) asosida yuritish kiradi.

So'nggi yillarda qabul qilingan xalqaro qonunlarga ko'ra davlatlarga atrof-muhitni muhofaza qilish uchun bir qancha majburiyatlar yuklatilgan.

Sezilarli zarar yetkazilishining oldini olish majburiyati: davlatlar o'z hududida amalga oshirayotgan faoliyati tufayli boshqa davlatlarning ekologiyasiga zarar yetishining oldini olishga zarur va kerakli bo'lgan vositalarni amalga oshirishi lozim hisoblanadi. Shuningdek, davlatlar global muammolarning oldini olish uchun boshqa davlatlar bilan birgalikda xalqaro bitimlar tuzish va axborot almashish orqali hamkorlikni amalga oshirishi kerak. Chunki yuqorida keltirib o'tilganidek, hozirgi rivojlanayotgan dunyoda hamkorlik qilish orqaligina global muammolarni hal qilish va kutilgan natijaga erishish mumkin. Lozim darajadagi ehtiyotkorlik majburiyati – davlatlar atrof-muhitni muhofaza qilishda lozim darajada ehtiyotkor bo'lishi, zararli oqibatlarni oldindan o'rganib chiqqan holda uning sodir bo'lishi ehtimolini bartaraf etishi hisoblanadi.

Mazkur majburiyatlar xalqaro ekologik huquqning umumiy tamoyillariga tayangan holda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, "Ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyili (Polluter Pays principle). Zarar keltirib chiqargan davlat boshqa davlatning zarar ko'rishiga sabab bo'lsa, tegishli ravishda javobgar hisoblanadi. Keyingi tamoyil esa, umumiy, biroq farqlangan javobgarlik tamoyili. Ushbu tamoyilga ko'ra, barcha davlatlar atrof-muhit muhofazasi uchun tenglik asosida ma'suliyatli hisoblanadi, lekin rivojlangan davlatlar ushbu muhim global majburiyat uchun yetakchi rolni bajarishi lozim.

Yana bir muhim tamoyillardan biri bu davlatlar o'z hududidagi ekologik xavf haqida oldindan boshqa davlatlarni xabardor qilishi lozimligidir. Bunga misol qilib Corfu Channel ishini keltirsak bo'ladi. Corfu Channel ishi – Xalqaro sud tomonidan ko'rib chiqilgan ilk va eng muhim ishlardan biri bo'lib, u davlatlarning o'z hududidan kelib chiqadigan xavf haqida boshqa davlatlarni ogohlantirish majburiyatini mustahkamlab bergan. Ushbu masalaga ko'ra, 1946-yilda Buyuk Britaniyaning harbiy kemalari Albaniya hududiga yaqin joylashgan Corfu bo'g'ozidan o'tayotgan vaqtda suv osti minalariga urilib, jiddiy zarar ko'rgan. Natijada insonlar halok bo'lgan va kemalar shikastlangan. Buyuk Britaniya Albaniyani ushbu minalar haqida xabardor bo'la turib, ogohlantirmaslikda ayblagan. Shundan so'ng, Xalqaro sudning qaroriga ko'ra, Albaniyani minalar mavjudligidan xabardor ekanligi ehtimoli yuqori bo'lganligini ta'kidlagan. Shu sababga ko'ra, ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan ushbu majburiyatlar va ularni amalga oshirish tamoyillari xalqaro ekologik huquqda muhim o'rin egallaydi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xalqaro huquq tizimida javobgarlik davlatlar va xalqaro tashkilotlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi institut hisoblanadi. Har qanday huquq sohasida, misol uchun xalqaro jinoiy huquq, xalqaro iqtisodiy huquq va diplomatic va konsullik huquqi aniq va hech qanday noaniqliklarsiz biror bir davlatning yoki tashkilotning xatti-harakatini qonun asosida tartibga soladi. Lekin, xalqaro ekologik sohasida xalqaro javobgarlik chorasi biroz mushkul hisoblanadi. Birinchidan, atrof-muhitga zarar yetkazganlik to'g'risidagi sabab bilan kelib chiqqan zararli oqibat o'rtasidagi bog'liqlik bo'lib, transchegaraviy zarar boshqa davlat hududida yuzaga kelganida, zarar manbai bilan uning oqibati o'rtasidagi masofani aniq belgilash mushkul. Masalan, havo ifloslanishi, radioaktiv chiqindilar yoki zaharli gazlar bilan bog'liq holatlarda asli haqiqiy zarar qaysi davlatga yoki qaysi tashkilotning hududida sodir bo'lganligini belgilash qiyin vazifa hisoblanadi. Yadroviy ifloslanish kabi holatlarda zarar darhol namoyon bo'lmaydi, balki yillar o'tib yuzaga chiqadi (masalan, 1986-yil 26-apreldagi Chernobil AES halokati). Shuningdek, Shuningdek, o'simliklar, hayvonlar yoki binolarga zarar yetkazgan ifloslanish turini aniqlash murakkab, chunki ko'pincha bir nechta ifloslanish turlari o'zaro ta'sirlashadi. Tabiiy omillar (shamol, quyosh, tuman) ham ifloslanish ta'sirini o'zgartiradi, bu esa zarar manbasini aniqlashni yanada qiyinlashtiradi. Shu kabi ekologik muammolarning asosiy sababi ifloslantiruvchi davlatni yoki tashkilotni aniqlash xalqaro ekologik huquq sohasida xalqaro javobgarlikning biroz mushkulligini belgilab beradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish global muammo bo'lganligi sababli global yechim talab qiladi. Yuqorida keltirilganidek, xalqaro ekologik huquq sohasida muayyan bir xalqaro javobgarni aniqlash mushkul ekan, xalqaro hamkorlik tushunchasi eng qulay yechimlardan biri sifatida tan olindi. 1972-yildagi Stokgolm deklaratsiyasining 24-prinsipida "atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilashga oid xalqaro masalalar hamkorlik ruhida hal etilishi lozim"ligi qayd etilgan. 1992-yildagi Rio deklaratsiyasining 7-prinsipida esa "davlatlar Yer ekotizimining salomatligi va yaxlitligini saqlash, himoya qilish va tiklash maqsadida global hamkorlik ruhida hamkorlik qilishi shart"ligi ta'kidlangan. Ushbu atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha asosiy bo'lgan deklaratsiyalarda ta'kidlanishicha, davlatlarning transchegaraviy ifloslanish muammolarini hal etishda xalqaro hamkorlik majburiyati xalqaro ekologik huquq subyektlariga yuklatildi.

Xulosa.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xalqaro ekologik muammolarni oldini olishga qaratilgan umumiy tamoyillar xalqaro ekologik huquqning asosini tashkil etadi, davlatlar, tashkilotlar faoliyatini yo'naltirib turadi va xalqaro javobgarni aniqlashda muhim hisoblanadi. Ushbu tamoyillar keltirib o'tilganidek, zarar yetkazmaslik tamoyili – davlatlar o'z hududida ham boshqa davlatlarga ham zarar yetkazmaslikni ta'minlashga majburdirlar, oldini olish tamoyili – ekologik zarar yuzaga kelganidan keyin emas, undan oldin zarur choralarni ko'rish muhim hisoblanadi. Shuningdek, lozim darajada ehtiyotkorlik tamoyili (due diligence) davlatlar ekologik xavflarni oldindan aniqlash va nazorat qilishga majburdirlar, xabardor qilish tamoyili – agar davlat faoliyati boshqa davlatning





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ekologiyasiga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, bu bo'yicha xabardor qilishi kerak, hamkorlik qilish tamoyili – davlatlar va tashkilotlar ekologik muammolarni hal etishda birgalikda hamkor bo'lib, muammolarni bartaraf etishi tushuniladi, ifloslantiruvchi to'laydi tamoyili (Polluter Pays Principle) – davlatlar atrof-muhitga yetkazgan zarari uchun huquqiy javobgar hisoblanadi. atrof-muhitni muhofaza qilish uchun yaratilgan har bir konvensiya, deklaratsiya va konferensiyalar xalqaro ekologik huquqni yanada rivojlantirish va barqarorlashtirish uchun ushbu tamoyillar asosida ish olib boradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shaw M.N. International law. 9th ed. Cambridge University Press, 2021.
2. United Nations. Paris Agreement. – Paris, 2015.
3. United Nations. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). — New York, 1992.
4. United Nations. Vienna Convention for the Protection of the Ozone Layer. — Vienna, 1985.
5. United Nations. Montreal Protocol on Substances that Deplete the Ozone Layer. — Montreal, 1987.
6. UNECE. Convention on Long-Range Transboundary Air Pollution. — Geneva, 1979.
7. United Nations. Stockholm Declaration on the Human Environment. — Stockholm, 1972.
8. United Nations. Rio Declaration on Environment and Development. — Rio de Janeiro, 1992.
9. International Court of Justice. Corfu Channel Case (United Kingdom v Albania). — Judgment of 9 April 1949.
10. IPCC. Climate Change Assessment Report. — Geneva, Intergovernmental Panel on Climate Change, latest edition.
11. OECD. The Polluter Pays Principle: Definition and Application. — Paris, OECD Publications.

